

# Ushbu sanani yodda saqlang - 22-may!

**2025 21 May**

Faqat shu kuni Uzbekistan Airways quyidagi yo'nalishlarda Toshkentdan Olmaota, Bangkok, Batumi, Kuala-Lumpur, Pxuket, Tbilisiga va qaytish aviaqatnovlari uchun chipta tariflariga 15% gacha chegirma e'lon qiladi.

Aksiya faqat bir kun davomida amal qiladi – 00:00 dan 23:59 gacha. Aviachiptalarni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) saytida, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling. Yo'lovchi va yuk tashish tariflariga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'imlar va to'lovlar ham o'rnatiladi. Ularga 15% gacha taqdim etiladigan chegirma amal qilmaydi.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Aksiya muddati 2025-yil 22-may soat 00:00 dan 23:59 gacha;
2. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
  - kattalar uchun tarifdan – 15% gacha;
  - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 15% gacha;
  - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
3. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'imlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
4. Ilgari sotib olingan aviachiptalar 22.05.2025da qayta rasmiylashtirilsa yoki qayta bron qilinsa, tarifga chegirma qo'llanilmaydi;
5. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta

- chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;
6. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
  7. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi;
  8. Chegirma e'lon qilingan barcha individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun faqat Toshkentdan Olmaota, Bangkok, Batumi, Kuala-Lumpur, Pxuket, Tbilisiga va ortga qaytuvchi to'g'ridan-to'g'ri yo'nalishlar uchun taqdim etiladi. CodeShare aviaqatnovlarida va Tijorat shartnomalari (SPA) ostida e'lon qilingan tariflar uchun amal qilmaydi.

*Uzbekistan Airways O'zbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus A320ceo/320neo/321neo, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.*

*Yo'nalishlar tarmog'i va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib qoladi.*

*Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviaqatnovlarini hamda Uzbekistan Airways Express loukoster tizimi bo'yicha ham parvozlarni amalga oshiradi.*

*Uzbekistan Airways tarkibiga "Uzbekistan Helicopters" MChJ, "Uzbekistan Airways Technics" MChJ, "Catering" MChJ, "O'quv-mashq markazi" MChJ kabi kompaniyalar ham kiradi.*